

JADIDCHILIK HARAKATINING VUJUDGA KELISHI VA UNING IJTIMOIY-FALSAFIY AHAMIYATI

Esanov Fazliddin Dushayevich

O'zMU tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada yurtimiz tarixida o'chmaz iz qoldirgan ajdodlarimiz jadidlar haqida, uning vujudga kelishi va ijtimoy-falsafiy ahamiyati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar. Jadidchilik, millat, taraqqiyot, Markaziy Osiyo, Chor Rossiyasi, demokratik harakat, milliy ozodlik.

THE EMERGENCE OF THE JADID MOVEMENT AND ITS SOCIO- PHILOSOPHICAL SIGNIFICANCE

Esanov Fazliddin Dushayevich

Researcher of the National University of Uzbekistan

Abstract. This scientific article discusses the Jadids, our ancestors who left an indelible mark on the history of our country, their emergence and socio-philosophical significance.

Keywords. Jadidism, nation, development, Central Asia, Tsarist Russia, democratic movement, national liberation.

ВОЗНИКНОВЕНИЕ ДВИЖЕНИЯ ДЖАДИДИЗМА И ЕГО СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ

Эсанов Фазлиддин Душаевич

Докторант УзМУ

Аннотация. В данной научной статье говорится о наших предках, оставивших неизгладимый след в истории нашей страны, о ее происхождении и общественно-философском значении.

Ключевые слова. Джадизм, нация, развитие, Средняя Азия, царская Россия, демократическое движение, национально-освободительное движение.

XIX asrning oxiri XX asrning boshi jahon sivilizatsiyasining taraqqiyotida keskin burilishlar davri bo'ldi. Bu davrda chuqur islohotlar, birinchi va ikkinchi jahon urushi bo'lib, ilm-fan taraqqiyotida tub sifatiy o'zgarishlar ro'y berdi. Bir jamiyatning butunlay yod jamiyat ta'sirida qolishi nafaqat hayotda balki kishilarning falsafasida ham inqilob yasadi. XIX asrning oxiri va XX asrning boshida Markaziy Osiyoda ham boshqa mintaqalarda bo'lgani kabi o'zgacha fikrlovchi, yangicha qarash vakillari shakllanib bordi.

XIX asrning ikkinchi yarmida O'rta Osiyoda ijtimoiy-iqtisodiy tuzum qoloq, fuqarolarning turmush tarzi o'ta past, madaniy-ma'naviy hayotida islom dini peshvolarining ta'siri kuchli edi. Insonlar dunyoqarashida tasavvuf falsafasi an'alarini tiklashga intilish kuchayib borayotgan bir vaziyatda, unga qarshi kuchlar bilan tafovutlar kelib chiqdi.

XIX asr oxiri XX asrning boshlarida siyosiy, madaniy, iqtisodiy jihatdan inqiroz xolatiga tushib qolgan, mustamlaka tufayli rivojlanish past darajada bo'lgan o'lkada Turkiston ziyolilari chor Rossiyasining mustamlakachilik zulmidan qutulish, o'z milliy davlatchiligini tuzish, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotga yo'l ochish, xalqqa ziyo tarqatish choralarini ko'rdi. Bu borada jadidchilik xarakati katta rol o'ynadi. Jadidchilik rus mustamlaka siyosatiga qarshi milliy demokratik xarakat bo'lib, u o'sha davr Turkistondagi qoloq iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sharoitda yashayotgan xalqlarni ma'rifatlashtirish, jamiyat xayotida ijtimoiy va madaniy isloxotlar o'tkazish, pirovardida milliy mustaqillik g'oyalarini xayotga tadbiq etish maqsadini o'z oldiga qo'ygan edi. O'rta Osiyo nisbatan Rossiya imperiyasining harbiy jihatdan ustunligi mahalliy aholining ochiqdan ochiq kurash olib borishiga imkon bermadi. Shuning uchun ham Vatan, millat, xalq qayg'usini tushungan kishilar, ayniqsa, ziyolilar xalqni ozodlikka eltuvchi yo'l bu - xalqni ma'rifatli qilish deb bildi. Ular xalqni ma'rifatli qilmasdan

turib, mustaqillikni qoʻlga kiritib boʻlmaydi, deb hisoblaganlar. Ziyolilar xalq orasida ilgʻor gʻoyalarni tarqatish maorif tizimini asosiy vosita deb bildilar. Oʻlka milliy ziyolilarining jamiyatni yangilashga va isoh qilishga qaratilgan harakati jadidchilik nomi maydonga chiqdi.

Jadidchilik yoki jadidizm (arabcha: جديد jadīd — yangi) — XIX asr oxiri XX asr boshida Turkiston, Kavkaz, Qrim, Tatariston hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy, maʼrifiy harakatdir. Jadidchilik dastlab XIX asrning 80-yillarida Qrimda vujudga keldi. XIX asrning 90-yillaridan Oʻrta Osiyoda tarqaldi.

Jadidchilik avvaliga madaniyat sohasidagi harakat sifatida faoliyat yuritgan. Bu oqim vakillari taraqqiyot uchun kurashish, turkiy tillarni rivojlantirish, shu tillardagi adabiyotni boyitish, dunyoviy ilmlarni oʻrganish, fan yutuqlaridan foydalanish hamda ayollar va erkaklar tengligi uchun kurashishga chaqirishgan. Keyinchalik jadidchilar panturkizm gʻoyalarini targʻib qilishgan.

Sovet davrida yozilgan adabiyotlarda jadidchilikka „burjua-liberal, millatchilik harakati“ deb taʼrif berilgan. Bu davrda asosan tanqid qilingan jadidchilik namoyandalari nomi SSRI parchalanib ketganidan keyin qayta tiklandi.

Jadidchilik dastlab XIX asrning 80-yillarida Qrimda Ismoilbek Gasprinskiy rahbarligida qrimtatarlar oʻrtasida vujudga keldi.

Jadidchilik harakati namoyandalari koʻpincha oʻzlarini taraqqiyparvarlar, keyinchalik jadidlar deb atashgan. Oʻsha davrning ilgʻor taraqqiyparvar kuchlari, birinchi navbatda, ziyolilar mahalliy aholining umumjahon taraqqiyotidan orqada qolayotganligini his etib, jamiyatni isloh qilish zaruriyatini tushunib yetgandilar. Jadidchilik mohiyat eʼtibori bilan avvalo siyosiy harakat edi. Uning shakllanish va magʻlubiyatga uchrash davrlari boʻlib, ularni shartli ravishda toʻrtga boʻlish mumkin. Turkiston, Buxoro va Xiva hududida bu davrlar 1895-1905; 1906-1916; 1917-1920; 1921—1929-yillarni oʻz ichiga oladi.

Millat istiqbolini o'lovchi taraqqiyparvar kuchlar xalqning deyarli barcha tabaqalari — hunarmand, dehqon, savdogar, mulkdor, ulamolar orasida mavjud edi. Ziyolilar dastlab chorizmga qarshi kurashni xalqni asriy qoloqlikdan uyg'otish — siyosiy-ma'rifiy jabhadan boshlashga qaror qildilar. Jadidchilik harakati ana shunday tarixiy bir sharoitda Turkiston mintaqasida rivojlanish uchun o'ziga qulay zamin topdi.

Jadidlar orasidan yetuk olimlar, sanoat va ziroatchilik sohalarining zamonaviy bilimdon mutaxassislari, madaniyat arboblari yetishib chiqib, yurtni obod va o'z vatanlarini mustaqil ko'rishni orzu qildilar va shu yo'lda kurashdilar. Jadidlarning Turkiston mustaqilligi uchun kurashida asosan quyidagi yo'nalishlar ustuvor edi:

- yangi usul maktablari tarmog'ini kengaytirish; qobiliyatli yoshlarni chet elga o'qishga yuborish;
- turli ma'rifiy jamiyatlar va teatr truppalari tuzish;
- gazeta va jurnallar chop qilish, xalqning ijtimoiy-siyosiy ongini yuksaltirish bilan Turkistonda milliy demokratik davlat qurish.

Jadid ziyolilarining kuchli partiyasi tashkil qilingan taqdirdagina bu ishlarni amalga oshirish mumkin edi.

Jadidchilikning asosiy g'oya va maqsadlari quyidagilar edi:

Turkistonni o'rta asrlarga xos qoloqlik va diniy xurofotdan ozod etish, shariatni isloh qilish, xalqqa ma'rifat tarqatish,

Turkistonda muxtoriyat hukumatini barpo etish uchun kurash, Buxoro va Xivada konstitutsiyaviy monarxiya va parlament, keyinchalik demokratik respublika tuzumini o'rnatish orqali ozod va farovon jamiyat qurish, barqaror milliy valyutani joriy qilish va milliy qo'shin tuzish.

“XIX asr ijtimoiy-falsafiy, diniy-axloqiy, siyosiy va madaniy taraqqiyotda so‘nggi va keyingi yuz yillikning boshlanish davri bo‘lib, g‘oyaviy-nazariy va mafkuraviy qarashlarning shakllanish xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Jadidlar harakati vujudga kelguniga qadar Turkistonda turli ma‘naviy-g‘oyaviy va mafkuraviy oqimlar qadimchilar, islohotchilar, bedilchilar, mashrabxonlar, shuningdek, Markaziy Osiyo, umuman turkiy xalqlarga taalluqli bo‘lgan tafakkurning turli shakllari, ijtimoiy-falsafiy mazmun va yo‘nalishga ega bo‘lgan ma‘rifiy ta‘limotlar va nazariyalar mavjud edi”.

Demak, bu davrda nafaqat jadidlar harakati balki boshqa g‘oyaviy ta‘limotlar ham shakllandi. Kishilarning dunyoqarashida tasavvuf falsafasi an‘analarini tiklashga intilish kuchayib borayotgandi. Bu davrda O‘rta asr musulmon mutafakkirlarining asarlarini qayta nashr etish ishlari boshlandi. Kalom falsafasi, shariat axloqiga oid klassik adabiyotlar arab-fors tilidan turkiy tillarga tarjima qilinib nashr etildi. Masjid va madrasalarda Bedilxonlik, diniy ulamolar tomonidan qadimchilik harakatlari, sherxonliklar avj oldi. O‘rta Osiyoda ma‘rifatparvarlik harakati kishilarning ilm-fan taraqqiyotiga, umuminsoniy qadriyatlarga, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma‘naviy qoloqlikni bartaraf etishga bo‘lgan intilishining natijasi edi.

Jadidlar turli mamlakatlardagi taraqqiyot va islohotlar uchun olib borilgan harakatlarning tajribasini milliy asosda qayta ishlashga intildi. Mustamlakachilikka qarshi kurashning bosh g‘oyasi ana shu murakkab sharoitda shakllanib yetildi. Bu davr haqida shunday deyilgan: “Tarixdan shu narsa ma‘lumki, har bir kichik harakat ertangi katta harakatning zamini vazifasini o‘taydi. Bu kungi mag‘lubiyat ertangi g‘alabaning amalga oshuvida ozmi-ko‘pmi rol o‘ynaydi. Busiz jamiyatning rivojini tasavvur etish qiyin”.

Jadidlikning poydevori, tamal toshi usuli jadid maktablarining tashkil qilinishi edi. Hamonki, maqsad jamiyatni yangilash ekan, uni yangi avlodgina qilishi mumkin edi. Buning uchun esa zamon talabiga mos yoshlarni tarbiyalash

masalasi jadid allomalarining oldiga qo'yilgan bosh masala bo'ldi. 1900-1925 yillar "jadidchilik" tushunchasining paydo bo'lishi o'z davrining eng peshqadam, tashabbuslar davridir.

XIX asrning oxiri va XX asrning boshida Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy va falsafiy qarashlar eng avvalo millat yoshlarini tarbiyalash va yangicha ko'rinishdagi ta'lim tizimidan foydalanishni maqsad qilgan. Dastlab xususiy jadid maktablarini ochib yoshlarga ta'lim bera boshlagan bo'lsa, keyinchalik jadid maktablari shakllanishi keng quloq yozib bordi. Mintaqaning turli hududlarida o'ziga xos tarzda bunday maktablar ochila boshladi. Shu o'rinda jadid maktablarining faoliyati haqida bo'lgan quyidagi fikrga e'tibor bersak, "Biz turkistonliklar ham 15 yil bo'ladirki, bu dunyoda o'zgalardek taraqqiy va toliyetmak orzusi bilan yangi maktablar ocha boshladik. Yolg'iz erkak bolalarimizni tarbiya etarg'a kirishdik, ammo qizlarimizning tarbiyasiga hozirgacha hech bir ahamiyat bermadik". 1910 yili bu "usuli jadid", ya'ni jadid maktablari yopildi. Ammo bu maktablarning yopilishi jadidlik harakatini susaytirolmadi, aksincha yanada rivojlanishi uchun xizmat qildi. Bundan "ko'rinib turibdiki, jadidlik keng ijtimoiy masalalar va ma'rifatparvarlik g'oyalarni ilgari surish maqsadida shakllangan ijtimoiy-falsafiy yo'nalish bo'lgan". Ammo jadidlik ta'limotiga munosabat faqatgina mustaqillik yillarida o'z mavqeini tiklab bordi.

Jadidlarning asosiy maqsadi dunyoviy ilmlarni egallagan yoshlarni tarbiyalash va ularning ma'naviy ongini oshirish, o'z vazifasini o'tay olmay qolgan eskicha ta'lim tizimiga yangicha innovatsion g'oyalarni singdirish edi. Bundan tashqari ular ijtimoiy hayot tarzini zamonaviy hayotga moslashtirish, milliy va zamonaviy armiyani joriy etish, diniy va dunyoviy, axloqiy normalarni inobatga olgan holda yangi qonunchilik konsepsiyasini ishlab chiqish va joriy etish, davlatning boshqaruv tizimini isloh etish, hududiy tarqoqlikni bartaraf etish choratadbirlarini ishlab chiqish, jamiyat rivojlanishining barcha sohalari uchun milliy

kadrlarni tayyorlash, davlatlar bilan diplomatik aloqalarni va tashqi siyosat konsepsiyasini oʻrnatish kabi bir qancha masalalarni ilgari surdi.

Fikrimizning xulosasida Turkistonda vujudga kelgan jadidlikning asosiy bosh maqsadi jamiyat taraqqiyoti uchun lozim boʻlgan barcha sohalarda innovatsion gʻoyalarni joriy qilish edi. Bu bilan jadidlar xalqning yashash tarzini oʻzgartirishni, ularning maʼnaviy ongini rivojlantirishni asosiy maqsadlaridan biriga aylantirgan. Jadidlar Turkistonda milliy rivojlanish pozitsiyasining boshida jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va maʼnaviy taraqqiyotini taʼminlash gʻoyasini olib chiqdi. Ular siyosiy faoliyatida mustaqillik gʻoyalari bilan yoʻgʻrilgan maqsadni ilgari surdi. Bu harakatni biz jadidlarning Chor Rossiyasining tajovuziga qarshi qaratilgan kurashida koʻrishimiz mumkin. Jadidlar milliy rivojlanish bilan qaramlikka qarshi kurashmoq lozimligini angladi. Bu gʻoyalar jadidlar siyosiy faoliyatining asosini tashkil etdi. Shuning uchun jadidlar mazlum xalqni ozodlik kurashiga chorladi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aʼzamxoʻjaev S. Turkiston muxtoriyati: Milliy-demokratik davlatchilik qurilishi tajribasi. - T.: Maʼnaviyat, 2000. –B. 7.
2. Abdulhamid Sulaymoniy. Andijonda yangi bank // Oyna. 1914 yil 18 yanvar.
3. Abdullaev R. Milliy –siyosiy gʻoyalar tarixidan // Inson va siyosat. –T.: 1991.- № 9. – B. 87-94.;
4. Aliev A. Fitrat va maʼrifat//Sharq yulduzi,1992, № 9. -B. 22.
5. Aliev A. Istiqlol va adabiy meros. –T.: Oʻzbekiston, 1997. 272 b.;